

**CHO‘L YALPIZ (ZIZIPHORA TENUIOR L.)
O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

Turg‘unov Muzaffar Mirzaraxmatovich

Namangan Davlat Universiteti Biotexnologiya kafedrası (PhD) katta o‘qituvchisi

Usmonov Toxirjon Zokirjon o‘g‘li

Namangan Davlat Universiteti Biotexnologiya fakulteti Dorivor o‘simliklarniyetishtirish
texnologiyasi yo‘nalishi II kurs magistrantlari

Annotatsiya

Biotexnologiya, kosmetika, dorivor va oziq ovqat sohalarida xushbo‘y o‘simliklarga nisbatan talab yuqori. Yalpizdoshlar oilasiga mansub turlar mashhur dorivor o‘simlik bo‘lganligi uchun farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati tomonidan tan olingan. Yalpizdoshlar oilasining dorivorlik xususiyatga ega bo‘lgan eng asosiy turi haqida ma’lumotlar ushbu maqolada keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: C vitamini, pulegon, tanin, kumarin, flavonoidlar, toksinlar, fitonsidlar

**ЗИЗИФОРА ТОНКАЯ(ZIZIPHORA TENUIOR L.)
ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ**

Тургунова Музаффа Ра Мирзарахматовича

старшего преподавателя кафедры биотехнологии (PhD) Наманганского
государственного университета

Усманов Тахирджон

Наманганский государственный университет, факультет биотехнологии, магистранты
2 курса, кафедра технологии выращивания лекарственных растений.

Аннотация

Существует высокий спрос на ароматические растения в области биотехнологии, косметики, медицины и пищевых продуктов. Виды, принадлежащие к семейству мятных, были признаны фармацевтической и пищевой промышленностью популярными лекарственными растениями. Информация об основном виде семейства мятных, обладающем лечебными свойствами, представлена в данной статье.

Ключевые слова: витамин С, пулегон, дубильные вещества, кумарин, флавоноиды, токсины, фитонциды.

ZIZIPHORA TENUIOR

MEDICINAL PROPERTIES OF THE PLANT

Muzaffar Mirzarakhatovich Turgunov-Senior Lecturer of the Department of Biotechnology
(PhD) of Namangan State University

Usmanov Takhirjon-Namangan State University, Faculty of Biotechnology, 2nd year
undergraduates, Department of Technology of Growing Medicinal Plants.

Abstract: There is a high demand for aromatic plants in the fields of biotechnology, cosmetics, medicine and food. Species belonging to the mint family have been recognized by the pharmaceutical and food industries as popular medicinal plants. Information about the main type of the mint family, which has medicinal properties, is presented in this article.

Key words: vitamin C, pulegone, tannin, coumarin, flavonoids, toxins, phytoncides

Bo'lim nomi	Sinf nomi	Oila nomi	Turkum nomi	Tur nomi
Gulli o'simliklar	Ikki urug'pallalilar	Labguldoshlar oilasi (Lamiacea)	Ziziphora turkumi	Cho'l yalpizi (Ziziphora tenuior)

Cho'l yalpizi (*Ziziphora tenuior*) Lamiaceae oilasi, *Ziziphora* turkumiga mansub bir yillik xushbo'y o't o'simlik. Bo'yi 20-30 sm. Poyasi oddiy tekis yoki shoxlangan, zich kalta tuklar bilan qoplangan. Barglari nashtarsimon uzunligi 2.5 sm. Gullari och binafsha rangda, kalta gulpoya, poya o'qida zich boshhoqsimon to'pgulda joylashgan. 8-11 mm, kosachasi 5-8 mm uzunlikda. Gul-toji ikki labli, kosachadan uzun. Mevasi yong'oqdir.

Tekisliklardan tog'larning o'rta qismigacha. Toshli va gilli toshlarda, daryo va dengizlarning qumli qirg'oqlarida, ko'pincha madaniy tuproqlarda o'sadi. Odatda kichik chakalakzorlarda uchraydi. O'rta va Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, G'arbiy Sibir, Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Pokistonda uchraydi.



Ziziphora tenuior kuchli kimyoviy tarkibga ega, shuning uchun uning tanaga ta'sir doirasi kengdir.

Cho'l yalpizining yer ustki qismida kumarin, immunitet tizimini mustahkamlovchi C vitamini, toksinlar tasirini zararsizlantiradigan flavonoidlar, efir moyi (0,8-1,0%) mavjud bo'lib, uning asosiy komponenti pulegon (75-80%) (shuning uchun o'simligimiz hushbo'y hidga ega) undan tashqari spirt va fitonsidlar ham bor. Ziziphora tenuior tanin va achchiqlikni o'z ichiga oladi. Ular yaralar, teridagi yoriqlar, o'smalar, ko'ngil aynishi, dizenteriya, ichak sanchig'i, bachadon infeksiyasini, hayz ko'rishni davolashda qo'llaniladi va diareyadan xalos bo'lishga yordam beradi. O'z holatini yo'qotmagan holatda o'simlik, nozik yoqimli tetiklantiruvchi hid va biroz yondiruvchi ta'mga ega. Revmatizm va tish og'rig'ini qoldirishda ham foydalaniladi. Turkmanistonda bu o'simlikning poya va barglaridan diareya, ichak sanchig'i va nevrasteniya uchun kardiotonik vosita sifatida ishlatiladi. An'anaviy tibbiyotda gastrit va o'pka tuberkulyozida o'simlik sharbatidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'simlik o'tining qaynatmasi bolalarda isitma va dizenteriyada foydalanish uchun tavsiya etiladi. Buning uchun ular kuniga ikki yoki uch marta bir choy qoshiqdan bunday sharbatni ichishadi. Sharbat tayyorlash uchun bir stakan qaynoq suvga o'simlikning bir osh qoshiq quruq to'g'ralgan poyasi solinadi. Olingan aralashma yopiq idishda ikki soat tindiriladi va undan so'ng bu aralashmani juda ehtiyotkorlik bilan filtrlanadi. Damlama kattalarga stakanning uchdan bir yoki to'rtidan bir qismi, bolalarga ovqatdan oldin kuniga uch marta bir choy qoshiqdan berilishi kerak.

Ko'proq samaradorlikni ta'minlash uchun ushbu vositani qabul qilishning barcha me'yorlariga, shuningdek uni tayyorlashning barcha qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur.

Barglari ziravor sifatida (hushbo'y baliq taomi va buzoq go'shti tayyorlashda) ham ishlatiladi. Damlama va sharbat ko'rinishida foydalaniladi. Bu o'simlikning dorivorlik xususiyatlari to'liq o'rganilmagan. Hozirda o'simlik ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

XULOSA.

Ko'rinib turibdiki cho'l yalpizi tarkibi xalq xo'jaligi va tibbiyot uchun muxim kasb etuvchi kimyoviy brikmalarga boydir. Bu brikmalar asosan imunitet tizimini oshirish, organizmlarni tetiklantirish va bundan tashqari juda ko'plab shamollash kasalliklarida foydalaniladigan dori vositalarining asosiy qismini tashkil etadi. Shunday ekan Respublikamiz hududida uchrovchi bu o'simlikni kimyoviy tarkibini chuqur o'rganish, tabiiy zaxira manbaalarini saqlash va uni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqib xalq xo'jaligiga tadbiq etish muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR

1. Tojibaev K.Sh., Beshko N.YU., Kadyrov R.U., Gaziev A.D., Oh Byoung Un, Jang Chang Gee, Shin Chang Ho, Choi kyung. Flora of the Western Tien Shan. The Chingan Mountains. – Korea National Arboretum, Pocheon, 2015.–344 pp. 263 p.

<https://conferencea.org>

2. Sulaymonov Inomjon Jamoliddinovich, Botirov Mirzohid Ismonxo‘jayevich, Abdiyeva Oyjamol Toshboevna, Ergashev Dilshod Tursumamatovich. Dorivor O‘simliklarni Yetishtirish Texnologiyasi. Toshkent 2022.
3. <https://www.researchgate.net/publication/273014565>.
4. <https://ru.m.wikipedia.org>.
5. <https://www.plantarium.ru>.

